

GLOBAL MUNOSABATLAR NAZARIYASI YOSHLARNING TARAQIYOTI G'OYALARI

Toshmatova Farog'at Foziljonovna
Qo'qon Universiteti Maktabgacha ta'lim
2-kurs yo'nalish talabasi.
+998979000016

Annotatsiya

Mazkur maqola orqali global munosabatlar nazaryasining zamonaviy masalalari va yoshlarning barqaror taraqiyotidagi rolini oshirishga va yoshlarni innovatsion salohiyati, madaniy xilma-xillikni rivojlantirishga qaratilgan.

Kalit so'zi

Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-fuqorolik, atrof-muhit muhofazasi, yashil iqtisodiyot demakratiya, ilm-fan va ta'lim, aholi salomatligi, texnik muhandislik va axborat.

Iqtisodiyot jamiyat hayotining muhim sohalaridan biri bo'lib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ne'mat va vositalarni ishlab chiqaradilar va o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar. Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy ta'sir etadi. Sobiq totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida siyosat iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolhoz-kooperativ mulkchilik shakllaridan iborat umumxalq mulki tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig'iga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib borar edi. Jamiyat a'zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar. Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganligi tufayli, mehnat motivatsiyasi sust. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchradi.

Ma'lumki, shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida «bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil

shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi»¹ deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda shakllanayotgan hususiy mulk ikki turdan iborat bo'ladi: birinchisi, yakka tartibda faoliyat yurituvchi tadbirkorlarning, dehqon va fermerlarning hususiy mulki, ikkinchisi, ularning shirkat ho'jaliklaridagi paylari, aksiyadorlik jamiyatlaridagi aksiyalari, uyushmalardagi ulushlaridan iborat korporativ hususiy mulk. Yakka va korporativ (ulushli) hususiy mulk egalari mulkdor hisoblanib, ularning mulkka bo'lgan huquqlari daxlsizligi davlat tomonidan himoyalandi. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolik kodeksida» «mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilishi, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o'zining mulk huquqini, kim tomonidan bo'lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilishi huquqidan iboratdir. Mulk huquqi muddatsizdir»¹. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida esa mulkdor huquqining daxlsizligi bilan birga, uning mas'uliyati ham belgilab berilgan. Hususan, unda «mulkdor mulkiga o'z xohishiga ko'ra egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart», deb ta'kidlangan. Hususiy mulk miqyoslarining kengayib borishiga olib keladi.

Tadbirkorlik erkinligi ayrim shaxslar va ularning uyushmalari, guruhlarining foyda, daromad olish maqsadida ma'lum sohada ho'jalik, iqtisodiy faoliyat yuritish erkinligini bildiradi. Bu shuningdek, u yoki bu tarmoqqa tadbirkorlarning o'z xohishlariga ko'ra kirishini va undan chiqishini ham anglatadi.

Insoniyat yangi tahdidlar oldida turibdi. Yer shari aholisi ko'payishi hisobiga tabiiy resurslar zahirasi muttasil qisqarmoqda. Bunday disproportsiya dunyo mamlakatlarini tang ahvolga solib qo'yayotgani bor gap. Avvalo, global ekologik muammolarning keskinlashuvi kuzatilmoqda. Ekspertlar vaziyatni o'nglash uchun jahon iqtisodiyotida "yashil taraqqiyot" tamoyillarini joriy etish zarurligini ta'kidlamoqda. O'zbekiston 2030 yilgacha "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni maqsad qilgan. Mutaxassislariga ko'ra, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish O'zbekistonga ko'plab bonuslar olib keladi. O'zbekiston Ekologik partiyasida Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi hamda O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti vakillari ishtirokida Kelgusi 7 yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uni 2023-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari loyihasida belgilangan vazifalar ahamiyati to'g'risida davra suhbatini bo'lib o'tdi. Unda "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish, uning asosi bo'lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini keskin oshirish, respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyati rivojlantirish, shuningdek, ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi, o'rmonlar maydonini kengaytirish masalalarining ayni damda nechog'lik dolzarbligi va ularni amalga oshirish mexanizmlari to'g'risida so'z yuritildi. O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlaridan birinchi bo'lib mazkur harakatga qo'shildi. Mohiyatan olib qaraganda, ikki yil avval qabul qilingan "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish

strategiyasi” yurtimizning “yashil taraqqiyot” sari yuz burganini anglatadi, “Yashil iqtisodiyot” faqat energetika sohasini isloh qilishdan iborat emas. Uning ichiga toza ichimlik suvi muammolari, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalar, barqaror shaharlar, chiqindilarni oqilona boshqarish, o‘rmon hududlarini kengaytirish, cho‘llanishni qisqartirish kabi ko‘p qirrali va keng tarmoqli chora-tadbirlar kirib ketadi. Xususan, O‘zbekistonda 2019-2030 yillarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish kontseptsiyasi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, energiya samaradorligi ko‘rsatkichini ikki karra oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish, ularning ulushini elektr energiyasini ishlab chiqarish umumiy hajmining yigirma besh foizidan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiya bilan ta'minlash ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston hududida qadim zamonlardan beri fan va madaniyat rivojlanib kelayotgan davlatdir. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to‘qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Hozir O‘zbekiston olimlari uzoq o‘tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o‘rganib, o‘zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Mamlakatda fanning yanada rivojlanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 1992-yil 8-iyuldagi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining “Davlat tomonidan fanning rivojlanishi va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi yuqoridagi Farmonni bajarish yuzasidan chiqargan Qarori ancha ta’sir qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2004-yil 9-noyabrda 532-sonli “Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 yilligini nishonlash to‘g‘risida” va 2005-yil 1-noyabrdagi 240-sonli “Xorazm Ma’mun Akademiyasi faoliyatini takomillashtirish va 1000 yillik yubileyini nishonlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlar qabul qildi. Shunday qilib, Xorazm Ma’mun Akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo‘limi sifatida tiklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tashqi ishlar vazirligi va YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi bilan hamkorlikda 2006-yil 20-sentabrdan – 12-oktabrgacha YUNESKOning shtab-kvartirasida (Parij sh.) ko‘rgazma tashkil qilishdi va Xorazm Ma’mun Akademiyasining 1000 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy anjuman o‘tkazishdi. O‘zbekistondagi xorij davlatlarning qator elchixonalari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi olimlari ishtirokida Xorazm Ma’mun Akademiyasi faoliyatiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazishdi, shunday konferensiyani yana Saudiya Arabistoni Ilmiy-tadqiqot markazi Koreyaning Kyongxi universiteti bilan birgalikda o‘tkazishdi.

Fanlar akademiyasi faoliyatini kuchaytirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2006-yil 7-avgustdagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishini boshqarish va muvofiqlashtirishni takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi qoshida Fan va texnologiyalar rivojini muvofiqlashtirish komitetini tashkil qilganligi alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bozor iqtisodiga o‘tish davrida ilmiy-tekshirish muassasalari olib borayotgan asosiy, amaliy va innovatsion tadqiqotlarga katta

e'tibor qaratadi. Bugungi kunda yuqori bilimni talab qiluvchi mahsulotlar va ilmiy-tekshirish muassasalari xizmatlarini keng targ'ib qilish, muhim amaliy ilmiy natijalardan foydalanishning yangi yo'llari aniqlanib, hayotga tatbiq qilinmoqda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy bo'limlari faoliyati takomillashtirish.

Tibbiyot axboroti va statistikasini chuqur tahliliy qayta ishlash, keyinchalik shu asosda sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish modelini takomillashtirish, jamiyat salomatligining butun tizimini tashkil etish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ham umuman respublika bo'yicha, ham ayrim mintaqalarda kasalliklarning oldini olish va ular profilaktikasi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish; sog'lom turmush tarzini mustahkamlashning, kasalliklar profilaktikasining aniq tamoyillari va mexanizmlari, aholining tibbiy madaniyatini rivojlantirish tadbirlari ishlab chiqilishi va joriy etilishini, jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish va ommaviy sport harakatining profilaktik tibbiyot bilan integratsiyasini ta'minlash. Tibbiyot axboroti va statistikasini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi bilan birgalikda sog'liqni saqlash tizimida sog'liqni saqlashning barcha tashkilotlari uchun yagona davlat va idoraviy hisobot shakllarini ishlab chiqish bo'yicha metodologik va tartibga soluvchi markaz funksiyalarini ijro etish, tasdiqlangan shakllar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasidan — davlat statistikasi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash davlat tizimining bevosita tibbiyot tashkilotlaridan — idoraviy statistika bo'yicha barcha zarur tibbiyot axborotini olish;

kasalliklar ko'paygan holatlarda sabablari va qonuniyatlarini aniqlash uchun, shuningdek ularning oldini olish va ular profilaktikasi chora-tadbirlarini ishlab chiqish uchun joylarning o'ziga chiqib zarur qo'shimcha tekshirishlar o'tkazish.

AT axborotga ehtiyojmand odamlarni o'z vaqtida to'g'ri ma'lumot bilan ta'minlash, ya'ni ma'lum bir predmet doirasidagi aniq axborotga bo'lgan ehtiyojni qondirish, axborot tizimlarining faoliyat ko'rsatish natijasi esa axborot mahsulotlari — hujjatlar, axborot massivlari, ma'lumotlar bazalari va axborot xizmatlaridir. Axborot tizimi tushunchasi kontestga qarab turlicha talqin qilinadi. Axborot tizimini yetarlicha keng tushunish uning ajralmas tarkibiy qismlari ma'lumotlar, apparat va dasturiy ta'minot, shuningdek, xodimlar va tashkiliy yordam ekanligini anglatadi. Axborot tizimini tor doirada tushunish uning tarkibini ma'lumotlar, dasturlar va texnik vositalar bilan cheklaydi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi axborotni boshqarish jarayonlarini va oxirgi foydalanuvchilarning axborotni olish, o'zgartirish va saqlashga qaratilgan maqsadli faoliyatini avtomatlashtirish imkonini beradi. Dunyoning turli burchaklarida har yili bir qancha axborot tizimlari konferensiyalari o'tkaziladi va ularning aksariyati ko'rib chiqiladi. AIS to'g'ridan-to'g'ri Axborot tizimlari bo'yicha xalqaro konferensiya (ICIS) ni va Amerika axborot tizimlari konferensiyasi (AMCIS) ni boshqaradi. AISga tegishli konferensiyalar axborot tizimlari bo'yicha Tinch okeani Osiyo konferensiyasini (PACIS), Axborot tizimlari bo'yicha Yevropa konferensiyasini (ECIS), Axborot tizimlari bo'yicha O'rta yer dengizi konferensiyasi (MCIS), Axborot resurslarini boshqarish bo'yicha xalqaro konferensiya (Conf-IRM) va Vuxan xalqaro elektron biznes konferensiyasi (WHICEB) ni o'z ichiga oladi. AIS bo'lim konferensiyalariga Axborot tizimlari bo'yicha Avstraliya konferensiyasi (ACIS), Skandinaviyada axborot tizimlarini o'rganish konferensiyasi (IRIS), axborot tizimlari xalqaro konferensiyasi (ISICO), AISning Italiya bo'limi

konferensiyasi (itAIS), yillik o'rta g'arbiy AIS kiradi. AITP ta'limi bo'yicha maxsus qiziqish guruhi bo'lgan EDSIG which is the special interest group on education of the AITP, organizes the Conference on Information Systems and Computing Education har yili noyabr oyida o'tkaziladigan Axborot tizimlari va hisoblash ta'limi bo'yicha konferensiya va Axborot tizimlarining amaliy tadqiqotlari bo'yicha konferensiya ni tashkillashtiradi.

Ijtimoiy-siyosiy atrof-muhit, ilm-fan, texnologiya va axborot resurslari jamiyat hayotining ajralmas tarkibiy qismlari bo'ib, ular holining sog'lig'i va turmush darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va ilmiy-texnik taraqqiyot insonlar hayot sifatini yaxshilash, salomatlikni mustahkamlash hamda

Xulosa

Ushbu maqola jamiyat hayotida iqtisodiyotning muhim roli va uning turli sohalarga ta'siri haqida so'z yuritadi. O'zbekistonda sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni, hususiy mulkchilikning rivojlanishi va tadbirkorlik erkinligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola, shuningdek, global ekologik muammolar va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining ahamiyati haqida to'xtalib o'tadi. O'zbekistonning 2030 yilgacha "yashil iqtisodiyot"ga o'tish maqsadlari va amalga oshiriladigan chora-tadbirlar haqida dalillar keltiradi. Mamlakatda fan va madaniyatning rivojlanishi, shuningdek, ilmiy merosni o'rganish va yangiliklar yaratish orqali jahon fani rivojiga qo'shilayotgan hissasi ham muhokama qilinadi. Umuman olganda, maqola O'zbekistonning iqtisodiy, ekologik va ilmiy sohalardagi yutuqlari va kelajakdagi rejalari haqida ko'plab muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

FOYLDALANINGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/globalashuv-va-uning-yoshlarning-estetik-tarbiyasiga-tasiri>
2. https://ya.ru/neurum/c/drugoe/q/kakaya_rol_molodezhi_v_processe_razvitiya_mezhdunarodnoy_beafd2c
3. <https://yomi.uz/ru/%D0%BA%D0%B0%D1%84%D0%B5%D0%B4%D1%80%D0%B0-%D1%82%D0%B5%D0%B3%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%BE%D0%B3%D0%BE-%D1%83%D0%BF%D1%80%D0%B0%D0%B2%D0%BB%D0%B5%D0%BD%D0%B8%D1%8F/>
4. <https://www.socionauki.ru/journal/articles/3626690/>
5. <http://lib.sportedu.uz/files/pedagogika/2.2.YOSH%20DAVRLARI%20PSIXOLOGIIYASI.pdf>